

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

«Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Rustamov Yusuf Bustonovich

tomonidan

ABU ALI IBN SINONING “DONISHNOMA” VA “RUH
HAQIDA” ASARDARIDA PSIXOLOGIK G'OYALAR

Bitiruv malakaviy ish

2013



Abu Ali ibn Sino
(980-1037)

MUNDARIJA

KIRISH

1-BOB. ABU ALI IBN SINONING ASARLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY MASALALARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

1.1. Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlarida ma'naviy-ma'rifiy masalalarning talqin qilinishi

1.2. Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asarlaridagi psixologik g'oyalar

2-BOB. ABU ALI IBN SINONING PSIXOLOGIK QARASHLARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI, SHAKLLARI, METODLARI VA VOSITALARI ...

2.1. Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlaridan foydalanishning mavjud ahvoli

2.2. Abu Ali ibn Sinoning “Ruh haqida” gi asarida “ruh” – “psixika”ning talqin qilinishi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo'lgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Ulug'bek, Navoiy va boshqa ko'pgina allomalar ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolardir. Shunday buyuk siymolardan biri – Abu Ali ibn Sinodir.

Buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm- fani, adabiyoti va san'ati taraqqiyoti tarixida roli beqiyosdir. U G'arbda Avitsena nomi bilan mashhurdir. Olim matematika, falsafa, meditsina, biologiya, pedagogika, psixologiya, mantiq, fizika, ritorika ilmi bobida katta salohiyatga ega bo'lib, ruboiy va g'azallar ham bitgan olimdir. Uning she'riy xazinasidan o'z davrida ham, keyinchalik ham ko'pchilik shoirlar bahramand bo'lishgan.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir¹». SHu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Huquqiy demokratik davlatimiz, ochik fuqarolik jamiyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalmish ta'lim sohasida olib

¹ Islom Karimov. Ўзбекистон буюк келажак сари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1998.-56-бет.

borilayotgan islohotlarning asosiy maksadi- bu jarayonning sifati va samaradorligini oshirishga karatilgan tadbirlar majmuasidan iborat. SHu boisdan, mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng yosh avlodg ao'tmish merosimizni xolisona baholashga keng imkoniyatlar yaratildi.

Buyuk hakim, mutafakkir Abu Ali ibn Sino: [Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalar o'z aksini topgan.](#)

Abu Ali ibn Sinoning asarlarida keltirilgan psixologik qarashlar yosh avlod shaxsining jismoniy, ruhiy, ichki dunyosini rivojlantirish, binobarin, yangi ijtimoiy munosabatlarni barpo qilish imkoniyatini beradi, Pirovard natijada bu yangi ijtimoiy-siyosiy muhit, milliy mafkuraning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy ongni shakllantirishni ta'minlaydi. Bu esa jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom, dunyoqarashi teran shaxslarning shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlaridan foydalanishning didaktik asoslarini yaratish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish, ular faoliyatini boshqarish muhim psixologik masalalar sirasiga kiradi.

[Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim - tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr - oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar](#)

ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim - qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy - madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni o'rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: "mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda".

Bu esa qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarini, bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy - pedagogik tafakkur iste'moliga kiritishni taqoza etadi.

O'tmish ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida alohida ta'kidlab deydi: "Xalqimiz tayanchi - ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona fodalanishimiz lozim".

Prezidentimiz jamiyatimiz milliy mafkurasini yaratishda ham o'tmish mutafakkirlarimiz merosini muhim deb biladi. U bu mafkurani yaratishda "milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat

hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nosir Frobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Voiz Koshifiy, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutayapman.

Masalan, Abu Ali ibn Sinoning "Donishnoma" asarini esga olaylik. Buning ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l - yo'riqlarni topa oladi",¹ - deb yozadi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida ham o'tmish tariximiz va merosimiz ahamiyatini yorituvchi muhim asardir. Prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan fikrlari faqat ijtimoiy - siyosiy sohaga emas, balki ta'lim - tarbiyamiz va pedagogikamiz sohasiga ham taalluqlidir. Pedagogikamiz tarixini, o'tmishda ta'lim - tarbiya amaliyoti va nazariyasi qanday bo'lganligini bilmasdan turib hozirgi ta'lim - tarbiyamizda yuksak darajaga erishib bo'lmaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari: A. Irisov, K. Komilov, K. Hoshimovlarning tadqiqotlarida Abu Ali Ibn Sinoning psixologiyaga oid qarashlari o'rganilgan.

¹ Barkamol avlod orzusi. T, 1999. 36-37 6.

Jamiyatimizning hozirgi bosqichida yosh avlodni manaviy madaniyatli va yuksak ma'rifatli qilib tarbiyalash muammosi olimlar va tadqiqotchilar etiborini jalb qilmoqda. Bu muammoga bag'ishlab faylasuflar, pedagoglar, psixologlar, adabiyotshunos va jamiyatshunos mutaxassislar tadqiqot ishlari olib bormokdalar. Jumladan, Q. Nazarov, N. Jo'rayev, M. Abdullayev, A. Luqmonov, Z. Islomov kabi olimlar jamiyatimizda milliy istiqlol ma'naviyatini tiklash va rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'z-o'zligini anglash, vatanga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish, tariximizga xolisona baho berish, buning barobarida buyuk siymolar, qomusiy olimlar hayoti va ijodini o'rganish muammolarining yechimini topishga ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va islomshunoslik nuqtai nazaridan yondashganlar. Ammo bugungi kunga qadar [Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalarni](#) yaxlit tizimga keltirish muammolari to'laqonli o'z yechimini topganicha yo'q. SHu sababli ishning mavzusi :

[" Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalar" deb nomlandi.](#)

Tadqiqot maqsadi:

[Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalarning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish.](#)

Tadqiqot ob'ekti:

Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asarlarida psixologik g’oyalar

Tadqiqot predmeti:

Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asardarida psixologik g’oyalarning mazmuni, mohiyati

Ilmiy tadqiqot farazi:

Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asardarida psixologik g’oyalar to’la-to’kis o’rganilganda, alloma e’tirof etgan komil insonni tarbiyalashdek yuksak vazifa amalga oshiriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asarlarida psixologik g’oyalar o’rganildi;
2. Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asarlarida komil inson tarbiyasiga xos bo’lgan fazilatlar talqin etildi.

Tadqiqotning metodologik asosi:

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asarlarida psixologik g’oyalarning tarbiya masalalariga bag’ishlangan hikmatli g’oyalariga asoslaniladi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik (kuzatish, tahlil qilish);

sotsiologik (so'rovnoma, testlar), pedagogik tajriba- sinov ishlarini olib borish va olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, umumlashtirish.

Himoyaga olib chikiladigan holatlar:

1. Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalar
2. Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida komil inson tarbiyasi masalalari

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

Tadqiqot mobaynida amalga oshirilgan maxsus adabiyotlar sharhi va olingan natijalar asosida ilgari surilgan nazariy g'oyalar, chiqarilgan ilmiy xulosalar psixologiya tarixi mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Tadqiqotdan olingan natijalar asosida Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlarida psixologik g'oyalaridan foydalanish metodikasini samarali yo'lga quyishga imkon yaratildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" va "Ruh haqida" asarlaridagi psixologik g'oyalardan "Psixologiya tarixi" fanida didaktik material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi:

Muammoni hal etishga tizimli va yaxlit yondashuv, tadqiqot maqsadining aniqligi; ilmiy faraz hamda vazifalarning maqsadga muvofiq ravishda belgilanganligi.

1-BOB. ABU ALI IBN SINONING ASARLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY
MASALALARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

1.1. Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlarida ma'naviy-ma'rifiy masalalarning talqin qilinishi

Buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm- fani, adabiyoti va san'ati taraqqiyoti tarixida roli beqiyosdir. U G'arbda Avitsena nomi bilan mashhurdir. Olim matematika, falsafa, meditsina, biologiya ilmi bobida katta salohiyatga ega bo'lib, ruboiy va g'azallar ham bitgan shoirdir. Uning she'riy xazinasidan o'z davrida ham, keyinchalik ham ko'pchilik shoirlar bahramand bo'lishgan.

U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'iladi. YOshligida Buxoroga kelib, ilm o'rganadi. O'sha paytlarda Buxoro SHarq uyg'onish davrining markaziy shaharlaridan bo'lib, ilm-fan rivoj topgan edi.

Ibn Sinoning o'rta asrlar sharqida mashhur tabib bo'lib yetishishiga bir tomondan, Buxoro ilmiy muhiti katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiiy va ilohiy ta'sir ham mavjud edi,- degan rivoyatlar yaratilgan.

Hukmron Somoniylar zulmi Buxoro ilmiy-adabiy muhitining rivojiga tez-tez salbiy ta'sir o'tkazib turardi. Ibn Sinoning xalq o'rtasida obro'si oshib borayotganidan tashvishga tushgan g'arazgo'y doiralar ma'rifatparvar insonni Buxorodan haydab chiqaradilar. Shundan so'ng Samarqand, Balxga, keyin Bog'dodga kelib ilm o'rganadi. Nissa, Nishapur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon shahardarida bo'ladi. Qayerda bo'lmasin o'zining falsafiy qarashlari,

tibbiy ilmi, she'riyati bilan xalq qalbidan keng o'rin egallaydi. XII asrdayoq uning asrlari arab, grek, lotin, fors tillariga tarjima qilinib, tahlil etilgan. Umrining oxirida Hamadonda yashab, 57 yoshida vafot etadi. Hozir ham bu shaharda Ibn Sino qabri turibdi.

Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Donishnoma», «Ruh haqida», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzilishi», «Insof kitobi», «Tibbiy ko'rsatmalar haqida» kabi 450 dan ortiq asarlaridan bizgacha 160 ga yaqini yetib kelgandir.

Ibn Sinoning «Al qonun»¹asari 1284 yilda lotin tiliga tarjima qilingan. Ibn Sino ijodini G'arb bilan Sharq o'rtasidagi ko'priki deyishadi. Ibn Sino G'arb adabiyoti va madaniyatini Sharqqa olib kirgan buyuk allomadir. «Kitob ush-shifo» asari G'arb davlatlari o'quvchilariga tezda yetib borgan. Uning «Kitob al-qonun fit-tib», «Al qonun», «Arab tili», «She'r to'g'risida kitob», «Musiqqa haqida risola», «Mantiq bo'yicha rajaz bahrida manzuma» («O'rjuza fil mantiq»), «Qushlar risolasi», «Salamon va Ibsol», «Hay Ibn YAkzon», «YUsuf», «Forscha mantiq», «Tomir urishi haqida risola» asarlari mavjud.

Qadimiy zaminimizda butun olamga dong taratgan ko'pgina buyuk siymolar yashagan. Turli sohalarda qamusiylar bilimiga ega bo'lgan Abu Ali ibn Sino shunday zotlardan biridir.

Ibn Sino merosi haqida gap borganda turli manbalarda uning 450 asari tilga olinadi. Bizning zamonimizgacha bulardan 240 tasi yetib kelgan. SHulardan 150 tasi pedagogik muammolarga doir asarlardir.

¹ А. Ирисов. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари- Душанбе: Ирфон, 2008.-19-бет.

«Kitob ash-ishorat vat-tanbihot», «Donishnoma», «Insof», «Hikmat al-mashriqiyn», «Mantiq», «Beruniy bilan savol-javoblar» Ibn Sinoning falsafiy asarlari qatoriga kiradi. «Ash-shifo» va «Tib qonunlari»da ham pedagogik mulohazalar bor.

Hayy ibn Yakzonni ko'pchilik sharhlovchilar, jumladan, A.Irisov ham –Faol Aql timsoli deb tushunadilar. Uning fikricha, faol aql rahnamoligida ilm-fan cho'qqilarini egallash mumkin. Asar qahramoni bunday deydi: «Ancha mahalgacha u (Hayy ibn YAkzon) bilan har xil ilm sohalarida masalalar aytishardik va ularning haqiqatini tushuntirib berishini so'rardik. Nihoyat farosat ilmiga yetdik. U, biz kelib to'xtagan farosat ilmidan gap boshlab, bunday deydi: - «Farosat ilmi foydasi naqd bo'lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga odamlarning o'zlari yashirib yurgan fe'lu atvorlarini bildiradi. Mana shu farosatning bildirishi natijasida unga boylanib qolarsan yoki yuz o'girarsan. Farosat ilmi sening o'zingni, aslingda bor tug'ma xislatlaring, o'zgartirilmagan tabiatlaringni ko'z o'nginga keltirib qo'yadi. Agar senga farosatning tuzatuvchi qo'li tegsa, sen juda o'tkir bo'lib ketasan. Agar (farosat qilmasa) seni biror aldoqchi (hismlaring, sezgilaring yoki yomon odatlaring) yo'ldan ozdirib, alday olsa, tuzog'iga tushasan...»

Axlok ilmi ruxiy olmani o'rganuvchi ilmlarning eng muximidir. Axloqni faqat nazariy bilish aslida uni bilmaslikdir. CHunonchi, butun insoniyat yomonlaydigan poraxo'rlik va o'ħirlik –poraxo'r va o'ħri uchun yaxshi xulq bo'lib ko'rinadi. Ibn Sino «yomon oshnolar

deb, inson fe'li atvoridagi aldamchilik, dangasalik, badnafslilik, kibruhavo, baxillik, hasadgo'ylik kabi elatlarni ko'zda tutadi ».

Ya'ni Hayy ibn Yakzon yana bunday «oshnoni» tanishtiradi: «Mana bu so'lingdagi oshnang esa – o'lguday iflos, ochofat, borvujudi bilan shahvatga berilgan kishidir... U o'lguday yaloqi, xo'randa, yutoqqan, mechkay va yamloqdik. U, rosa ochiqtirib, keyin axlatga qo'yib to'ng'izga o'xshaydi». Ibn Sino bu yerda buzuvchilik, shilqimlik, shahvatparastlikni ta'riflayotgani ochiq ko'rinadi. Mazkur illatlarni «halok etuvchi» deb baholashda Ibn Sino G'azzoliy bilan hamfikrdir.

Ibn Sino ma'naviy poklik, dil musaffoligini ta'riflaganda insonning o'z fe'l –atvoridagi yomon oshnolardan qutilish imkoni borligini ta'kidlaydi. Aslida pedagogika va ahloqning asl maksadi ham Inson ruhiy olamining va vujudini badnafslilik, ta'magirlik, ochko'zlik, baxillik, takabburlik kabi halokatli xislardan poklash yo'li bilan barkamollikka erishish yo'llarini ko'rsatib berishdir.

Buyuk mutafakkir, ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sino: «Badan tarbiya-sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir», deydi, bu fikrda: «Kimki qilsa harakat-sog'lig'ida bo'lar barakat», - degan naqlni eslatadi.

Abu Ali ibn Sino «Tibbiy doston» («Urjuza») asarida riyozat-badantarbiyasi xaqida to'xtalib, uning bir necha xillari bo'lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o'rtacha shug'ullanish sog'liqqa foydali ekanligini bunday ta'riflaydi:

«Bilsang riyoziyat turlari necha-necha
SHarofatli bo'lur esa u o'rtacha.
To'g'ri va mo'tadil bo'lib o'sgay badan
Kir-chir ila chiqindidan qutular tan»¹

Olim yana jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xiltlarning yig'ilishiga sabab bo'lishini alohida uqtirib, bunday deb yozadi:

«Riyoziyatsiz yotishdan ko'p topma rohat,
Bu rohatdan topolmassan hech manfaat.
Jim yotsaang iflos xilt-la to'lar badan,

G'izocha hech hozirlanmas biror maskan»
Buyuk mutafakkir inson hayotiy faoliyatining barcha ko'rinishlari birligi va yaxlitligini alohida ta'kidlab ko'satadi. U bulardan tashqari, bola hulqini, uning alohida tuyg'ularini, tasavvurlarini shakllantiruvchi ichki rag'batlar yaratish haqidagi masalani qo'yadi. Ibn Sino jismoniy tarbiya orqali yaxshi hulq – atvorni tarbiyalanuvchining ichki, shaxsiy sifatlariga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi va u birinchilar qatori tarbiyachilar tomonidan hayotiy vaziyatlar yaratilishi masalasining maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi fikrni bayon qiladi.

¹ A. Ирисов. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари- Душанбе: Ирфон, 2008.-23-бет.

Mutafakkir sog'lom avlod deganda ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan yetuk, bardam, har ishga qodir, ilg'or madaniyatli kishilarni ko'zda tutadi. Darhaqiqat, shunday noyob fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakda ochiq ko'z, yorug' yuz, katta ishonch bilan qaraydi.

Ona tabiat ato etgan oliy mohiyatga ko'ra biz-o'zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmuni farzandsiz tasavvur etolmaydigan xalqmiz. Dunyoga kelib farzand ko'rish, imorat qurish, nihol ekib, bog' yaratish-ota-bobolarimizdan qolgan nasliy an'ana, ezgu tilak va qutlug' insoniy burchdir. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqimiz tarixining mashaqqatli sinovlari osha o'zining ana shu olijanob xislat-fazilatli an'analoriga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda. Ajdod-avlodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular, o'lmas SHarq falsafasi, ilmiy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar.

Insonning kuch va qobiliyatlari jismoniy, aqliy va ahloqiylikka ajratiladi. Shunga binoan insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiysi, yuksalishini ta'min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi, bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, ahloq tarbiyasidir.

Abu Ali ibn Sino asarlaridagi psixologik g'oyalarda bola tarbiyasida axloqiylik tushunchalari inson hayotida katta ahamiyatga ega. Birinchidan, hayotda har kimning mukammal sog'salomatlikka, kuch-quvvatga ega bo'lishi ehtiyoji bor. Ikkinchidan, tan sog'lig'i fikr va ahloqning ham sog'lig'ini ta'min etadi. Fikr va ahloq bilan mijoz va sog'lomlik uzviy bog'liq.

Badan tarbiyasining maqsadi har tomonlama yetuk: jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

Abu Ali ibn Sino asarlarida keltirilgan g'oyalar insonni ulug'laydi.

Ahmad al Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad YAssaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, YUsuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi fozillar ijodidan tortib, to asrimiz boshida yashab o'tgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitratlargacha bo'lgan olimlar, yozuvchi va shoirlarimizning, ustoz-murabbiylarimizning o'qish va o'qitishga doir ilg'or g'oyalarini urganishga zamin yaratildi, asriy milliy an'analar tiklandi, zamonaviy pedagogika bilan bog'liqlik yuzaga keldi.

Xar bir jamiyatni ma'naviy yuksaklikka eltguvchi omil, unga milliy ruh bag'ishlovchi hususiyat-insonparvarlikdir. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tobora obro'-e'tibor qozonib borayotganligiga yuritilayotgan insonparvarlik siyosati sabab bo'la oladi.

Insonparvarlik o'zbek xalqining milliy fazilatidir. Insonparvarlik har bir insonning qalb amri bo'lsada, bugungi kunga kelib hayotiy ehtiyoj darajasiga, qadriyatga aylanib bormoqda. Insonparvarlik

insonlarning insonlarga nisbatan mehr - oqibatlilik, saxovatlilik, muruvvatlilik demakdir.

«Insonparvarlik insonlarning ezgu fikri, ezgu amali birligidir. Insonparvarlik ona zaminda yashayotgan, millatidan, dinidan, ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar barcha insonlarga nisbatan g'amxo'rlikdir»- deydi K. Nazarov.

Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlaridan foydalanishning jamiyatimizdagi madaniy-ma'rifiy sohalarda ilgari bosilgan qadam bo'lib hisoblanadi¹.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta'biricha: "Jismoniy mashqlar hattoki noto'g'ri turmush tarzi natijasida ham tug'ma, ham faoliyat natijasida orttirilgan nuqsonlarni to'g'rilab, inson tanasi tuzilishini ham o'zgartirishga qodir",- degan ajoyib fikrni bildirgan. U jismoniy mashqlardan sog'lomlashtirish – gigiyena omili sifatida foydalanishni tavsiya qildi va shu maqsadga bag'ishlab oltita kitob yozdi. Bu kitoblarda jismoniy mashqlarni uch qismga bo'lishni tavsiya qiladi. Birinchi qismga u o'zini – o'zi davolash mashqlarini, ikkinchi qismga – harbiy mashqlarni, uchinchi qismga – atletika mashqlarini kiritadi. U atletika mashqlarini inson uchun kerakli bo'lmagan, haddan tashqari ko'p kuch talab qiladigan, inson uchun unchalik zarur bo'lmagan mashqlar deb inkor etadi. U ikkinchi qism mashqlarni shaxsga emas, balki jamiyatga zarur mashqlar deb hisoblaydi. Uchinchi qism mashqlarni, inson uchun zarur

¹ А. Ирисов. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари- Душанбе: Ирфон, 2008.67-бет.

bo'lgan "chin" mashqlar deydi. Ikki yuz yil uning asarlari yevropada jismoniy tarbiya bo'yicha asosiy qo'llanma vazifasini o'tab keldi.

Olim o'zining "Donishnoma" asarida bolalar sog'ligini saqlash, mashg'ulotlar vaqtida charchab qolishning oldini olish singari vazifalari haqida fikr bildiradi.

Bolalarning qaddi-qomatini to'g'ri -mutanosib shakllantirish, suyak-bo'g'inlarni va muskullarni uyg'unlashgan tarzda rivojlantirish, yurak-qon tomir hamda nafas olish a'zolarini, asab tolalari majmuasini mustahkamlash ko'p jihatdan jismoniy tarbiya darslarida Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlaridan foydalanishni talab qiladi.

Ibn Sino birinchi bo'lib tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi. Jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya etish inson sog'lig'ini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asoslab bergan edi.

Jismoniy tarbiya darslarida Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlaridan foydalanish, maxsus guruhlarda qiziqarli va bajarilishi oson bo'lgan mashqlar tashkil etish o'quvchilar harakat faoliyatlarini to'g'ri shakllantirishga katta yordam beradi.

Ma'lumki, xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi bo'lgan o'zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy xayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini,

diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy, xulosalarini lo'nda va donishmandona tarzda ifodalaydi.

Ma'lumki, axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. **Axloq**- ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma soxalarida kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq bizning hayotimizga va ongimizga faol ta'sir qiladi, kishilik jamiyati nomidan yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan adolatsizlik, mehr bilan zulm o'rtasida va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, hatti-harakatlarni belgilab beradi. Insonning jamiyatga, oilaga, mehnatga bo'lgan munosabatlarida axloq namoyon bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida boy an'anaga ega. O'tmish allomalarimiz, mutafakkirlarimiz axloq va axloqiylik masalasiga o'z asarlarida alohida o'rin berishgan.

Abu Ali ibn Sino «Risoi axloq» risolasida shunday yozadi: «Axloq ilmi insonlarning yaxshi xulqlarga chaqirub, yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarning yaxshiligini yomon xulqlarning yomonligini bayon qiladurgan, bildiradurgan bir ilmdir. Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxiratda sharofatlik bo'lur. Axloqli yaxshi kishilar dushmanlarini ham osonlik

bilan o'zlariga do'st qilurlar. Insonlarning hayvonlardan farqlari, ayrimlari aql, ilm, so'z, adab, fikr, axloq iladur. SHuning uchun dunyoda «chin inson bo'lrman» degan kishilarga bu ilmni o'qimak, axloq yo'llarini o'rganmak, yaxshi xulq qaysi, yomon xulq qaysi - bilmak, bir-biridan ayirmak lozimdir. Agar bir kishining o'zidan, ishidan, so'zidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyilur. Agar ozor topadurgon bo'lsalar yomon xulq deb atalur».



Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida”gi asarlarini talqin qilish jarayoni



**Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida”gi asarlarini talqin qilish
jarayoni**

Tadqiq qilinuvchilarda insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, hamdardlik, mehr-oqibatlik kabi sifatlar shakllantirildi. Mustahkam irodali, sog'lom fikrli, axloqiy normalarga rioya qiluvchi, qat'iyatli, shijoatkor, prinsipial shaxslarni rivojlantirishga erishildi.



Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida”gi asarlarini talqin qilish jarayoni

UMUMIY XULOSA

Buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm-fani, adabiyoti va san’ati taraqqiyoti tarixida o’rni beqiyosdir. U matematika, falsafa, meditsina, biologiya, pedagogika, psixologiya, mantiq, fizika ilmi bobida katta salohiyatga ega bo’lib, ruboiy va g’azallar ham bitgan olimdir. Uning she’riy xazinasidan o’z davrida ham, keyinchalik ham ko’pchilik shoirlar bahramand bo’lishgan.

Abu Ali ibn Sinoning asarlarida keltirilgan psixologik qarashlar yosh avlod shaxsining jismoniy, ruhiy, ichki dunyosini rivojlantirish, binobarin, yangi ijtimoiy munosabatlarni barpo qilish imkoniyatini beradi, Pirovard natijada bu yangi ijtimoiy-siyosiy muhit, milliy mafkuraning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy ongni shakllantirishni ta'minlaydi. Bu esa jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom, dunyoqarashi teran shaxslarning shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlaridan foydalanishning didaktik asoslarini yaratish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish, ular faoliyatini boshqarish muhim psixologik masalalar sirasiga kiradi.

Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Donishnoma», «Ruh haqida», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzilishi», «Insof kitobi», «Tibbiy ko'rsatmalar haqida» kabi 450 dan ortiq asarlaridan bizgacha 160 ga yaqini yetib kelgandir.

Ibn Sinoning «Al qonun» asari 1284 yilda lotin tiliga tarjima qilingan. Ibn Sino ijodini G'arb bilan Sharq o'rtasidagi ko'prik deyishadi. Ibn Sino G'arb adabiyoti va madaniyatini Sharqqa olib kirgan buyuk allomadir. «Kitob ush-shifo» asari G'arb davlatlari o'quvchilariga tezda yetib borgan. Uning «Kitob al-qonun fit-tib», «Al qonun», «Arab tili», «She'r to'g'risida kitob», «Musiqqa haqida risola», «Mantiq bo'yicha rajaz bahrida manzuma» («O'rjuza fil mantiq»),

«Qushlar risolasi», «Salamon va Ibsol», «Hay Ibn YAkzon», «YUsuf», «Forscha mantiq», «Tomir urishi haqida risola» asarlari mavjud.

Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Ruh haqida” asarlaridagi psixologik g’oyalar katta ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sino “Donishnoma” asarida «... insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. YAxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va bilan misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini chuqur bilub amal qilgan kishilar o’zining kim ekanini, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganini bilur» - deb yozadi.

Abu Ali ibn Sino “Ruh haqida”gi asarida insonning ruhiy kechinmalari, inson qalbi, ruhi to’g’risidagi fikrlarni keltiradi.

Ibn Sino ta’biricha, “ruh”- inson vujudidan tashqarida yashaydigan, o’lmaydigan, hamisha mavjud bo’ladigan unsur.

Mutafakkir “Ruh haqida” asarida yozishicha: “Ruh- insonning vujudidan tashqarida yashovchi, ammo inson xulqini va faoliyatini boshqaradigan kuch. Ruhda o’tmishning, hozirgi davr va kelasi zamonning hodisalari ifodalangan tartibga solingandir. Inson ruhi ham anglanilmagan, ham anglangan xususiyatga ega bo’lib, anglanilmagan ruh o’z navbatida hayvon ruhidan sifat jihatidan keskin tafovutga va ustuvorlikka ega”. Olimning 1X asrning oxiri X asrning boshida yozgan bu so’zlari XX asr psixolog olimi I. M. Sechenovning fikriga mos keladi.

Jamiyatimizdagi yoshlarni jismoniy sog'lom, ma'nan boy, hur fikrli, kuchli bilimdon sohiblari qilib tarbiyalash otabobolarimizning asriy orzu-umidlariga hamohangdir.

Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlaridan foydalanishda tarbiyaviy ishlarni jonlantirish, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar ko'lamini kengaytirish, sayqallashib qolgan uslublardan voz kechib, yangi, zamon talablariga mos keladigan tizimli metodikani, psixologik treninglarni ishlab chiqish kerak. Tizimli reja asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda «Kamolot» yoshlar harakati, «Xotin-qizlar qo'mitalari, «Mahalla oqsoqollari», mahallalarda diniy ma'rifat, ma'naviyat va axloqiy tarbiya bo'yicha mutasaddilar faol ishtirok etishlari kerak.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng otabobolarimiz qoldirgan ma'naviy meroslarni o'rganish va rivojlantirishni tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Voiz Koshifiyning ijodini o'rganish, tahlil qilish ko'p jihatdan o'quvchilarda madaniy diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirishga zamin yaratadi. Boshlangich sinf o'quvchilarida milliy iftixor tuyg'ularini kamol toptirish buyuk mutafakkir olimlarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muso al Xorazmiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ulugbek kabi daholarning ijodini urganishdan boshlanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya

jarayonini milliyalashtirish orqali komil insonni tarbiyalash-bugungi kunning eng dolzarb masalasi xisoblanadi.

Bizning buyuk mutafakkirlarimiz o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axlogiy sifatlarni ulug'lagan bo'isa, ta'limiy-axlogiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglashimiz mumkinki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta'minlash g'oyasi turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2003.- 38 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. -T., 1997 .
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. -T., 1997 .
4. Karimov I. A. Sog'lom avlod kelajagimiz mevasi g'g'Xalq so'zi, 2003, №4, B.-3.
5. Karimov I.A. Uzbekistan the road of independenge and progress.- T., «Uzbekiston», 1992, -R. 70.

6. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.g' O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. -T.:SHarq, 1997.- 53b.
7. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. -T., «O'zbekiston» 1997.-328 b.
8. Karimov I. A. O'zbekiston XX1 asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston, 1999.- 73b.
9. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida.- T.:O'zbekiston, 1998.- 78b.
10. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. G'.B. SHoumarov tahriri ostida.-T.: Mehnat, 2000.-,296 b .
11. O'zbekiston Respublikasining "Sportni rivojlantirish to'g'risida»gi prezident Farmoni.-T., 20003.
12. Braunschweig: Westermann ,1999, -304 p.
13. Rudiger Prozediagnos als neueres Konzept der Lernfahigkeitsdiagnoseg'g'-In Mandi H. neue modelle Annahmen und Befunde, 2002,77 r.
14. To'ymonova H. Iqtisodiyot-ma'naviyat va mafkuraning ko'zgusidir.g'g'Ma'rifat-2000.16 sentyabr.-B.5.
15. Usmonxo'jayev T., Xo'jayev F. Harakatli o'yinlar.-T.: O'qituvchi, 1992.-182 b.
16. Usmonxo'jayev T., Xo'jayev F. 1001 o'yin.-T.:Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990.-352 b.

17. Usmonxo'jayev T.S., S.G. Arzumanov, V.A. Qodirov. Jismoniy tarbiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik.-T.: O'qituvchi, 2003.-208 b.
18. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun Jismoniy tarbiyadan Davlat ta'lim standarti - T., 2004.
19. Uman A. I. Uchebno'e zadaniya i protsess obucheniya. –M. g'g' Pedagogika, 2003.- №2 –S.5-6.
20. Ukran M. L. Organizatsiya i provedeniye detskix sportivno'x igr.-M.: Znaniye, 1990.-72 s.
21. Usmonov K., G'aniyev D. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida.-T., O'zbekiston ,1994.- 89 b.
22. Usmonov M. Donishmandlar axloq haqida. -T.:Fan, 1996.-124 b.
23. Usmonov M. YAxshi fazilat – insonga ziynat. -T.: O'zbekiston, 1992.-189 b.
24. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.,1999.-84 b.
25. Filipov V. K. Teoriya sporta.-Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 1998.-198 s.
26. Frolov V. G. Sayrda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, o'yinlari va mashqlari.-T.: O'qituvchi, 1990.-176.
27. Frolov V. G., YUrko G.P. Fizkulturno'e zanyatiya dlya detey nachalno'x klassov.-M.: Fizkultura i sport, 1992.- 234 s.
28. Xodjava E. Stanovleniye lichnosti sportsmena.-M. : Fizkultura i sport, 1995-451 s.

29. Xo'jayev F., usmonxo'jayev T. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari.-T.:O'qituvchi, 1996.-184 b.
30. SHaripova D. Ota-onalar o'rtasida tibbiy-pedagogik bilimlarni targ'ib qilish.-T.: yo Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1994.-127 b.
31. SHayxova X. O., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. -T.:SHarq, 1992.-186 b.
32. CHernyavskiy V. D. Fizkultura va salomatlik.g' M. Ergasheva tarjimasi.-T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990.-183 b.
33. Yunusova YU. M. Teoreticheskiye osnovo' fizicheskoy kulturo' i sporta.-T.: Uz Gos IFK, 2005.-261 s.
34. Yusupov E. Inson kamolatining ma'naviy asoslari.- T.: Universitet , 1998,-98 b.
35. YUsupov E. Tarixdan saboqlar.- T.: SHarq, 1999.-238 b.
36. YArmulinik D. N., V.V. Tyupa, Abdiyev A. N. , Xalmuxamedov R. D. Biomexanika legkoatleticheskix lokomatsiy.-T.:UzGosIFK, 1996.-194 s.
37. O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining «O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash to'g'risidagi 1999 yil 21 sentyabr, 277g'201g'693 sonli bo'yrug'i.
38. O'zbekiston Respublikasining "Sog'lom avlod" Davlat dasturi.-T., 1998.

39. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni.-T., 2000.
40. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi № 1.-T.: Qomuslar bosh tahririyati, 2000.- 767 b.
41. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar: Hoshimov K., Ochil S, -T.: O'zbekiston, 1999.- 461 b.
42. Qori Nizomiddin bin mulla Hasan. Ilmi axloq. - T.:YOzuvchi, 1994.- 189 b.
43. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi -T.:O'qituvchi, 1994,- 292 b.
44. G'oziyev E. Psixologiya.- T.: O'qituvchi, 1996,- 198 b.